

2018 yil yanvar-sentyabr

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida 1072,3 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 207,7 mln. AQSh dollarini va import 864,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosini – 656,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


Oxirgi yillarda viloyatning eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlarini bo'yicha o'sish kuzatilmoqda.

Mashina va asbob-uskunalarining eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,9 foizga oshib, qora va rangli metallar eksporti esa 85,9 foizga o'sdi.


Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 85,1 mln. AQSh dollari tashkil etib, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmining 82,4 foizini tashkil etdi.

Viloyatda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida 744,8 mln. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 154,2 mln. AQSh dollarini va import 590,5 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Eksport tarkibi, foizda



Import tarkibi, foizda





Eksport va importda sohalar ulushlari


Import tarkibining umumiy hajmidan 46,8 foizini mashina va asbob-uskunalar, 19,6 foizini kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar tashkil qiladi.

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 12,4 foizini xizmatlar eksporti tashkil qilib, bunda transport xizmati 49,2 foizni va safarlar xizmati 32,3 foizni tashkil etdi.

Importda eng katta ulushni, ya'ni

46,8 foizni mashina va asbob-uskunalar importi egallagan. Eksportda esa bu soha 8,0 foizlik natija bilan qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining eksportdagi ijobiy ko'rsatkichi (49,7 foiz) eksport hajmining deyarli yarmini tashkil etdi.




2018 yil yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi saldosı –656,9 mln. AQSh dollarini tashkil qildi. Shundan MDH davlatlari bilan –122,6 mln. AQSh dollarini va boshqa davlatlar bilan –534,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi quyidagi ma'lumotlarda tavsiflanadi:

	<i>mln.dollar</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan, %</i>
Eksport	207,7	114,7	100
paxta tolasi	-	-	-
oziq-ovqat mahsulotlari	103,2	109,3	49,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyolagan buyumlar	4,2	79,4	2,0
qora va rangli metallar	8,7	185,9	4,2
mashina va asbob-uskunalar	16,6	180,9	8,0
xizmatlar	25,7	123,3	12,4
boshqalar	49,3	111,1	23,7
Import	864,6	144,0	100
oziq-ovqat mahsulotlari	124,6	186,1	14,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	169,4	107,3	19,6
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	4,1	2,5m	0,5
qora va rangli metallar	65,2	2,8m	7,5
mashina va asbob-uskunalar	404,6	140,5	46,8
xizmatlar	2,8	79,3	0,3
boshqalar	93,9	158,3	10,9


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 31,1 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar ulushi esa 68,9 foizni tashkil qilib, ular orasida Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Braziliya, Hindiston, Eron, Latviya, Litva, Fransiya, AQSh, Italiya davlatlarini kiritish mumkin.




Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, (foizda)

Eksport



Import




Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmi 85,1 mln. AQSh dollarini, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122,0 foizni tashkil qildi. Meva - sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida



40,8 foizini sabzavotlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 165,6 foizini tashkil qildi), 25,8 foizini mevalar (90,2 foizini), 27,7 foizini uzum (98,6 foizini) va meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy hajmidan 34,5 foizini qayta ishlangan meva va sabzavot mahsulotlari (96,8 foizni) tashkil qildi.


Eksport hajmida asosiy hamkorlar Qozog'iston (umumiy hajmdan 15,4 foiz), Rossiya (18,4 foiz), Vetnam (5,7 foiz), Xitoy (9,8 foiz), Turkiya (9,8 foiz), Belarus(4,6 foiz) va Eron (6,9 foiz) Islom Respublikalari hisoblanadi.

Meva- sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksport hajmida davlatlar ulushi, foizda



Tashqi savdo

Eksport tarkibining umumiy hajmidan 41,0 foizini meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti tashkil qildi.



Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining miqdori

Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti miqdori 104,1 ming tonnani, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121,0 foizni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksport hajmidan mevalarning miqdori 18,2 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82,2 foizni, sabzavotlar 53,2 ming tonnani (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172,1 foizni), **uzum 27,3 ming tonnani (86,4 foizni)**, **yer yong'oq 5,1 ming tonnani (10,3 martani)**, **qovun va tarvuz 407,6 tonnani (44,4 foizni)** tashkil qildi.